IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL – 1 ,ISSUE – 2
https://wordlyknowledge.uz/

Turg'unov Jaloliddin.Rahmonali o‘g‘li

Tursunaliyeva Namuna Qurvonali qizi

Mo'ydinova Muhayyo Abdumannobjon qizi

Ibrohimova Iroda Ibrohimjon qizi

Yo‘ldashova Gulchehra Shuhratjon qizi

Andijon Davlat Universiteti

Muhammadjonmoydinov5@gmail.come

Inson salomatligida tayanch-harakat a'zolar tizimi

Suyakning tuzilishi va tarkibi

***Annotatsiya*:**Mazkur maqolada inson salomatligi uchun muhim a'zolardan biri suyak haqida ma'lumot berilgan.Bunda suyakning kimyoviy tarkibi tuzilishi fiziologik harakatlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar : Suyakning anatomik va kimyoviy tuzilishi . Suyak xillari :naysimon, , g'ovaksimon, yassi , aralash suyaklar .

Аннотация: В этой статье представлена информация о костях, одном из важных органов для здоровья человека, содержится информация о химическом составе кости, ее строении и физиологических действиях .

***Ключевые слова*:** Анатомическое и химическое строение кости. Типы костей: трубчатые, губчатые, плоские, смешанные кости.

Anotation:This article provides information about bone, one of the most important organs for human health. It provides information about the chemical composition, structure, and physiological actions of bone.

Key words: Anatomical and chemical structure of bone. Types of bones: tube-shaped, spongy, flat, mixed bones**.**


[1]. Insonlarda suyaklar soni yoshlik paytida ko‘proq bo‘ladi . Odamda normal suyaklar soni 206 ta ,lekin yoshlik paytida esa 231 ta bo‘ladi. Har bir suyak alohida (os) a’zodir.suyak murakkab tuzilishga va kimyoviy tarkibga ega. Suyaklarning tuzilishida suyak to‘qimasi muhim ahamiyatga ega.

U metalldek qattiqlikka ega bo‘lib, molekulalar massasi 1,93 (suvdan ikki baravar ko‘p) . Tirik suyak to‘qimada yoki yangi ajratilgan suyakda 50% suv, 28,15% organik moddalar, 15,75%yog‘ va 21,85% noorganik moddalar bor.Noorganik moddalar yoki mineral tuzlar suyakni qattiq va pishiq qilsa,organik moddalar uning elastikligini ta’minlaydi.Suyakda noorganik moddalarning miqdori yoshga qarab ko‘payib boradi, shuning uchun qarilarning suyagi mo‘rtlashib boradi.Yosh bolalarda esa aksincha ularning suyaklari elastik chunki organik moddalar ko‘p bo‘ladi.Agar suyak kuchli kislotaga solinsa mineral tuzlar erib ossein moddasi qoladi. Suyak qattiqligini yo‘qotib elastik bo‘lib qoladi.Agar suyakni yoqqanda organik moddalar yonib suyakning elastikligi yo‘qoladi bunda suyak tezda kulga aylanadi.

Yana suyakda A,D,C vitaminlar ham bor.Agar D vitamini kam bo‘lsa suyakning mineral tarkibi buzilib raxit kassaligi kelib chiqadi.

[2]. Suyaklar turli xillarda bo‘ladi naysimon,

g‘ovaksimonva yassi , aralash holda ko‘rishimiz mumkin.



Naysimon suyaklar: Uzun va Kalta suyaklarga bo‘linadi.

*Uzun suyaklarga:*yelka,bilak,son va boldir suyaklari. Bular qo‘l va oyoq suyaklariga kiradi.G‘ovak zich moddalardan tuzilgan,ilik kanali bo‘ladi va richag harakatiga ega,tayan va muhofaza vazifasini bajaradi.

*Kalta naysimon suyaklar:*qo‘l ,oyoq kafti va panja suyaklari kiradi va kalta harakat qilish richaklariga ega.

G‘ovak suyaklar: Uzun , Kalta va Sesamasimon suyaklarga bo‘linadi.

Uzun g‘ovak suyaklar: qovurg‘a va to‘sh suyaklari kiradi. Asosan g‘ovak moddasidan tuzilgan bo‘lib uni yupqa zich modda plastinkasi qoplab turadi va tayanch vazifasini bajaradi.

Kalta g‘ovak suyaklar: umurtqalar,qo‘l- oyoq,kaft usti suyaklari kiradi.

Sesamasimon suyaklar: tizza qopqog‘i,no‘xatsimon suyak va barmoq suyaklarining Sesamasimon suyaklari - g‘ovak moddasidan tuzilgan muskul paylarining orasida,deyarli bo‘g‘im atrofida joylashadi ularni hosil qilishda ishtirok etadi harakatni osonlashtiradi.

Yassi suyaklar: Kalla va kamar suyaklari kiradi.

Kalla suyagi: kallaning yassi ya’ni qopqoq suyaklari himoya vazifasini bajaradi.

Kamar suyaklari: kurak va chanoq suyaklari kiradi tayanch va muhofaza vazifalarini bajaradi.

Aralash suyaklar: bunga asosan kalla suyagining asosiy qismini tashkil etadigan va bir qancha suyaklar birikishidan vujudga kelgan suyaklar kiradi .Xulosa qilib shuni aytish mumkinki suyaklar doimo bir xil bo‘lavermaydi. Hattoki ularning kimyoviy tarkibi ham bor ekanligini bilishimiz kerak. Insonlar doimo D vitamini ya’ni quyosh nurida ko‘proq jismoniy mehnat qilishlari kerak.

Adabiyotlar:

1. A.G‘.Ahmedov,G.X.Ziyamutdinova „Anatomiya , fiziologiya,patalogiya" 2017 yil „Iqtisod moliya" nashriyoti Toshkent.
2. N.K.Ahmedov „Odam anatomiyasi"atlas.2005 yil „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashiryoti.
3. Nozimjon o’g’li, S. S. (2022). First Aid Medication and Remedies for Heart Failure. *Academia Open*, 7, 10-21070.
4. Nozimjon o’g’li, S. S. (2022). Emergency Medical Care in Case of Drowning and Measures to Restore the Patient's Health. *Academia Open*, 7, 10-21070.

5. Nozimjon o'g'li, S. S., & Xasanboy o'g'li, A. A. (2021). Quantitative Indicators of Villi Cells in the Intraepithelial Part of the Small Intestine. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *1*(2), 19-21.